




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

8
—
2023



ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH			
41.	<i>MURODOV Oybek To'raqulovich</i>	Informatika darslarini tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish	207
42.	<i>YADGAROVA Sadoqat Kenjabayevna</i>	Biologiya darslarini tashkil etishda o'qituvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish	212
43.	<i>XUDAYBERDIYEVA Arofat Isroilovna</i>	Fizika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining tutgan o'rni va uni baholash uslublari	218
44.	<i>BOZOROV Zavqiddin Ravshanovich, MAMATOXUNOVA Yulduzxon Abduraimjon qizi</i>	Uchinchi darajali algebraik tenglamalarni yechishda case-study texnologiyasini qo'llash	223
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
45.	<i>MO'MINOV Feruzjon Ilxomovich</i>	Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik davrini modellashtish	227
46.	<i>SAFOYEV Hasan Aminovich, MAMUROV Baxrom Baxshulloyevich</i>	Basketbol sport o'yinlari mashg'ulotlarini tashkil etish va uni o'tkazish metodikasi	233
SAN'AT			
47.	<i>SAMIYEVA Shaxnoz Xikmatovna, ASLANOVA Nargiza Xikmatovna</i>	Xalq amaliy bezak san'atini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	242
IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA			
48.	<i>PINYOZOV Ikromjon Hakimboyevich</i>	Talabalarning iqtisodiy bilimlarni shakllantirish orqali ularda tadbirkorlik qobiliyatini ruvojlantirishning noan'anaviy usullari	246
TA'LIM MENEJMENTI			
49.	<i>NARZULLOYEVA Feruza Fatulloyevna</i>	Zamonaviy oliy ta'limgiz tizimini boshqarishda strategik qarorlar qabul qilish tamoyillari	251
50.	<i>HAZAROVA Сурайё Жаббор қизи</i>	Умумтаълим мактабларида таъlimni бошқариш ва кўллаб-қувватлаш texnologiyasini rivojlanтириш	256
MA'NAVIYAT VA TARBIYA			
51.	<i>ALIMOVA Shamsiya Raximovna</i>	Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishda xalq pedagogikasining o'rni	261
52.	<i>ASATOVA Barfiya Faxridinovna</i>	Boshlang'ih sinflarda o'tkazilayotgan tadbirlarning ahamiyati va ularni takomillashtirish metodikasi	265
53.	<i>GULBOYEV Akbar To'xtayevich</i>	Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash	268
54.	<i>UMAROVA Iqboloy Akbutaevna</i>	Milliy qadriyatlarimizda mehr va saxovat tushunchalarining aks etishi	273
55.	<i>КИЯМОВ Нийон Содикович</i>	Musika san'atiida tarbia masalalari	277
PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI			
56.	<i>BARNOYEVA Zarina Sayfiddinovna</i>	Imom G'azzoliy asarlarida pedagogik qarashlar hamda nafs tarbiyasi masalasi	281
57.	<i>САЛОХОВ Акмал Қамариддинович</i>	Aхмад Донишнинг таъlim-tarbiyaga оид қарашлари	286

MA’NAVIYAT VA TARBIYA

TALABALARING MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O’RNI

*Alimova Shamsiya Raximovna,
Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi*

Mazkur maqolada xalq pedagogikasi vositasida talabalarning ma’naviyatini rivojlanterish, ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda ta'lim-tarbiya borasida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar va g'oyalalar, milliy odob-axloq an'analari, milliy qadriyatlami aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish kabi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ta'lim-tarbiya, axloqiy tushunchalar, sharqona urf-odatlar.

РОЛЬ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ ДУХОВНОСТЬ

В данной статье рассмотрено развитие духовности и социальной активности учащихся посредством народной педагогики, и в условиях, когда социально-экономические и духовно-образовательные изменения, происходящие в нашем обществе, требуют повышения уровня профессионально-педагогической подготовки учителей. Рассмотрены актуальные вопросы, такие как педагогические взгляды и идеи, созданные нашим народом, национальные нравственные традиции, научное изучение национальной педагогики, отражающей национальные ценности, тщательный анализ, внедрение и передача следующему поколению.

Ключевые слова: фольклор, образование, нравственные понятия, восточные обычаи.

THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN DEVELOPING STUDENTS' SPIRITUALITY

The article focuses on the development of students' spirituality and social activity through the means of folk pedagogy, and at a time when the socio-economic, spiritual and educational changes taking place an increase in the level of professional and pedagogical training of teachers is being required. Relevant issues such as pedagogical views and ideas created by our people, national moral traditions, scientific study of national pedagogy reflecting national values, careful analysis and implementation and transfer to the next generation will be considered.

Key words: folklore, education, moral concepts, oriental customs.

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi shakillanib boradi. Xalqning boy madaniy, ma'rifiy milliy merosini, tarixini, bobomeros an'analari, qadriyatlari, urf-odatlari, bayramlari, marosimlari mazmuni va ularning umumbashariy ahamiyatini bilmagan yoshlarda iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik, ezzulik, haqqoniylilik, elsevarlik do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomilalik, jamoa ichida o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, hurmat bilan muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaklik, xushfe'llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, va boshqa milliy ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Asosiy qism. Xalqimizning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlanib, takomillashgan va bu jarayonlar xalq pedagogikasida o‘z aksini topib borgan. Xalq pedagogikasi avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o‘rin tutgan. Chunonchi, xalq o‘zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy, axloqiy tushunchalar, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Xalq pedagogikasining muhim yo'naliishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir.

Uning muhim jihatlaridan biri esa millatga xos bo‘lgan xususiyatlarning saqlanishini ta’minlash sanaladi. Bu haqida I.A.Karimov «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash joizligini ta’kidlaganlar. Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to‘plagan boy tajribalari, axloqiy, ma’rifiy, ma’naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi, etnologiya, etnografiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik (arxeologiya), udumshunoslik va xalq og‘zaki ijodining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi, ulardagи axloqiy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg‘or axloqiy g‘oyalar va tajribani o‘zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Xalq pedagogikasi - tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmuyi; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an`ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o‘yin singari empirik vositalarda namoyon bo‘ladigan amaliy faoliyat hamdir.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, diniy-axloqiy ta’limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, estetik, ma’naviy-axloqiy, falsafiy, marifiy, hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini teran ifodalaydi. Shu bilan birga, o‘zbekona an’anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o‘ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag’oyat dolzarb mavzularni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo’llanma-dastur yoxud darsliklar shaklida yetib kelmay, balki, asosan, xalq ogzaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlab qolingen. Xalqning oilaviy-shaxsiy hayoti, ta’lim-tarbiyaviy axloq-odobga oid hayotiy yo‘l-yo‘riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar - dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo’shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so’zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o‘yinlari, allalar, to‘y va aza qo’shiqlari, aytimlari, olqish va qarg’ishlar, suyush-erkalash qo’shiqlari, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar, sanamalar, o‘yin-kulgular bilan bog’liq lapar, aytishuv, o‘lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo’shiqlari ramazon, boychechak, yomg’ir, quyosh, yulduz suv aytimlari, chandishlar, tegishmachoqlar, masxaralamalar, «Navro’z», «Mehrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo’shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog’liq nasriy va nazmiy asarlar; inson, tabiat va hayvonlar dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasavvurlar aks etgan asarlar bilan boyitilgan.

Oliy ta’lim muassasalardagi « O’zbek tili», «Vatan adabiyoti» kabi darsliklarida turlicha yoritilgan xalq og‘zaki ijodiyoti, o‘zbek adabiyoti klassiklari asarlari xalq pedagogikasi manbalari sifatida chuqur tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Xalq og‘zaki ijodi namunalari va o‘zbek mutafakkirlari asarlari bilan talabalarni tanishtirishda o‘qituvchi yorqin badiiy obrazlarga asosiy e’tiborini qaratishi zarur. Talabalar esa bu obrazlarni qabul qilishlari, tushunishlari va his etishlari kerak. Zero, badiiy obraz orqali yoshlarda turli hissiyotlarni vujudga keltirish mumkin. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonini o‘rganishda Farhodning jasoratli mehnatiga tan berish, Shirinning vafodorligi va go‘zalligiga lol qolish, Xisravning yovuzligi va makkorligiga g‘azablanish kechinmalari uyg‘otiladi. O‘zbek tili darsliklarida o‘zbek adabiy tili me’yorlarini o‘rganishda, grammatik qoidalarni egallashda chuqur tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan folklor asarlari, ya’ni dostonlar, rivoyatlar, qo’shiqlar, ertaklar, maqollar, naqlar, hikmatli so’zlar va hokazolardan tuzilgan misollardan iborat mashqlar qo’llaniladi. Tarix darslarida turli tarixiy davrlarda xalqimizning milliy urf-odatlari va an’analari, me’morchiligi va amaliy san’ati, hamda fan va madaniyatning boshqa sohalari qanday rivojlanganligi haqidagi qator bilimlar o‘zlashtiriladi. Bunday bilimlar talabalar dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, ularda axloqiy nafosat xususiyatlarini shakllantirishga, vatanparvarlikni tarbiyalashga ko’maklashadi, ya’ni xalq tarixi - milliy ongning bir bo‘lagi sifatida har tomonlama yetuk inson bo‘lib shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo‘lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir. O‘zbek milliy mifikabini yaratishda ta’lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish masalasi asosiy muammolardan biridir. Shunday ekan, xalq pedagogikasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ularni mumkin qadar to’laroq amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash juda muhimdir. Yoki xalq pedagogikasining yoshlarni tarbiyalashdagi va ularga ta’lim berishdagi imkoniyatlarini qay darajada ekanligini bilish lozim.

Xalq pedagogikasini o’rganish va undan o’quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to’plagan pedagogik ma’lumotlar, bilimlar, ko’nikmalar va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishmiz lozim. Ya’ni xalq pedagogikasi manbalari bo’lib nimalar xizmat qilishini aniqlashimiz zarur.

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta’rifi xalq pedagogikasi manbalari haqida yorqin tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi: «Xalq pedagogikasi – xalq og’zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o’ynchoqlari va o’yinlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma’lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir». Ta’rifda keltirilgan xalq pedagogikasi manbalari turli xalqlar tarbiya madaniyatiga taaluqlidir. Shu bilan bir qatorda, har bir xalq, jumladan, o’zbeklarning tarixiy ijtimoiy taraqqiyotida, hayot tarzida, madaniyatida, faoliyat turlarida umuminsoniy xarakterdagи xususiyatlar bilan yonma-yon milliy o’ziga xos, betakror tomonlari ham mavjuddir.

Demak, xalq pedagogikasi manbalarida ham o’ziga xoslik, takrorlanmaslik mavjud.

O’zbek xalq pedagogikasi manbalariga quyidagilar kiradi:

1. O’zbek xalq og’zaki ijodi(folklori).
2. Milliy urf-odatlar, an`analar va marosimlar.
3. Xalq o’yinlari.
4. Diniy ta’limotlar.
5. Xalq amaliy san`ati va hunarmandchiligi.
6. Milliy musiqa va qo’shiqchilik san`ati.
7. Tasviriy san`at.
8. Tarixiy yodgorliklar va milliy me`morchilik
9. Xalq raqs san`ati (xoreografiyasi).
10. O’rta Osiyo va o’zbek xalqi mutaffakirlarining asarlari.

Farobiyning insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qarab, asarlari xalq pedagogikasini boyitib boruvchi durdonalar qatoriga kiradi. “U inson aqlining tubi – bu bilimdir” va “Dunyoda bilim kabi muhim meva yo`qdir- deb ta’kidlaydi”.

Nosir Xisravning “Ma’rifat kitobi”da “O’z-o’zini anglash”, “Yaxshi va yomon sifatlari” kabi boblar bor, ular o’ziga xos o’zini tarbiyalash dasturi hisoblanadi. Insonni to`g’ri tarbiyalashga halaqit qiladigan yettita (yomonlik) va ularning o’rniga esa Yuksak, olivjanob 7 fazilatlarni singdirishni ta’kidlaydi :

<i>Yettita (yomonlik) to`siqlari.</i>	<i>Yuksak, olivjanob 7 fazilat</i>
Takabburlik	Kamtarlik.
Ayyorlik	Halollik
Berahmlik	Sabr-toqat
Ochko`zlik	Oddiylik
G`azab	Shukronalik
G`araz	Sahiylik
Shahvatparastlik	Mehribonlik

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga xalqimizga xos bo’lgan axloqiy me’yorlarni o’rgatishda va ularga insoniy fazilatlarni shakkantirishda hamda barkamol shaxs tarbiyasi masalalarida xalq pedagogikasining barcha manbalarida, ya’ni xalq og’zaki ijodi janrlarida ham buyuk mutafakkirlar ijodida ham yaxlit uyg‘unlik borligiga amin bo’ldik. Demak, oilada farzandni tarbiyalashda va bilimga qiziqishini oshirishda, ham komil inson qilib tarbiyalashda xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi xalq og’zaki ijodi janrlari namunalardan foydalanish ijobiy natija beradi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. “Ўзбекистон”, 2017.
2. Almetov N.Sh. “O’quv tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish” - Chimkent.6 1993
3. Xalq pedagogikasi va ma`naviy qadriyatlar tarbiya manbai <https://arxiv.uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/xalq-pedagogikasi-va-ma-naviy-qadriyatlar-tarbiya-manbai>
4. Xalq pedagogikasi <https://e-library.namdu.uz/pedagogikasi.Matalipova 20M.J.pdf>

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARINI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarining to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalilanigan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiyoq ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishslash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobi bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matmini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.